



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 226 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woosyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloyevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi	41
<i>Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</i>	
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish	47
<i>Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli	50
<i>Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</i>	
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari	54
<i>Qobilov Voxidjon Zoxidovich</i>	
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку	58
<i>Мухамеджанова Римма Рашидовна</i>	
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari	66
<i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi</i>	
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili	70
<i>Sadriddinova Feruza Meliyevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish	75
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar	80
<i>Qudratov O'ktam G'ofurovich</i>	
Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari	85
<i>Tursunov Xusniddin Isomovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	88
<i>Safarova Halovat Barnoyevna</i>	
Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari	91
<i>Yusupova Maftuna Ilxomidin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>	
Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning matematik modeli (Ziyoanim Overlap)	97
<i>Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li</i>	
Tizimli yondashuv asosida talabalarining raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning uch komponentli konseptual modeli	101
<i>Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi</i>	



The Theory of Fostering Students' Responsibility for Natural Resources and Waste in Karakalpak Folk Pedagogy.....	104
<i>Tursinbekova Qundizgul Joldasbekovna</i>	
Soft skills kompetensiyalarining ilmiy-pedagogik mohiyati va zaruriyati: soft skills tushunchasining evolyutsiyasi, asosiy komponentlari, turlari va tasnifi	109
<i>Igamberdiyeva Gulmira Botir qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari.....	115
<i>Sabina Saitmurodova Olim qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda art-pedagogikaning imkoniyatlari.....	119
<i>Komolova Iroda Xamidullayevna</i>	
9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida GIS texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va uslubiy muammolari	123
<i>Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi</i>	
Zamonaviy biologiya ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy jihatlarini	126
<i>Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurati	130
<i>Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna</i>	
Nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar	136
<i>G'aniyeva Maloxat Odilovna</i>	
Ruhiiy salomatlikni mustahkamlashda psixologik treninglarning ahamiyati	140
<i>Maqsuda Norbosheva, Nafisa Abduyeva</i>	
Xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishning zamonaviy tendensiyalari.....	144
<i>Shasaidova Lola Shamaksudovna</i>	
Социально-экологический кризис в Южном Приаралье.....	149
<i>Сейтова З. П.</i>	
Iqtisodiy fanlar bo'yicha to'garak faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari.....	153
<i>Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimjanovna</i>	
Motivational Readiness for Continuous Professional Development.....	162
<i>Okilova Kamola Sadulloevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarda antisotsial xulq-atvorning oldini olishning pedagogik mexanizmlari ..	166
<i>Davronova Zarrina Baxtiyorovna</i>	
Yapon tilini o'qitishda らしい (rashii) evidentsiallik ko'rsatkichini o'rgatishning pedagogik xususiyatlari	173
<i>Musayeva Aziza Ibrohim qizi</i>	
Ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogik prognostikaning nazariy-metodologik asoslari va metodik imkoniyatlari.....	178
<i>Sharipova Shaxnoza Xasanovna</i>	
Qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi.....	183
<i>Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna</i>	
Tibbiy ta'lim klasterida talaba markazlashgan muhitni shakllantirish: kredit-modul sharoitida intellektual adaptiv tyutorlik texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari	188
<i>Ibragimova Venera Azadovna</i>	
Turli yosh davrlarida perfektsionizm va maqullanish motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish.....	193
<i>Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna</i>	
Frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy xususiyatlari	197
<i>Raxmonova Gavhar Nuritdinovna</i>	
Development of adolescent thinking and its psychodiagnostics and psychocorrection	202
<i>Samarova Shoxista Rabidjanovna</i>	
Jadid pedagogik konsepsiyasi va zamonaviy ta'lim tizimi integratsiyasi: tarixiy-pedagogik tahlil va amaliy yo'nalishlar	209
<i>Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna</i>	

Kredit-modul tizimi asosida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi	213
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich	
Modern Socio-Psychological Trends in the Study of Emotional Alienation	219
Yangibaeva Dildorakhon Rakhmon kizi	



KREDIT-MODUL TIZIMI ASOSIDA KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARI O'QUVCHILARINI KASBIY KOMPETENSIYALARINI BAHOLASHNING PEDAGOGIK MEXANIZMI

Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich

Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti
mustaqil izlanuvchisi, t.f.n., dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada kasbiy ta'lim tashkilotlarida kredit-modul tizimi asosida o'quvchilar kompetensiyasini baholashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Kredit-modul tizimi asosida kompetensiyalarni baholashning ilmiy-metodik yondashuvlari tahlil qilinib, ularni zamonaviy kasbiy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, kredit-modul tizimida o'qitishni tashkil etishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari ilmiy tahlillar va mualliflik qarashlari asosida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kredit-modul tizimi, kasbiy ta'lim, kompetensiya, pedagogik mexanizm, kompetensiyani baholash, baholash mezonlari, diagnostika, monitoring, metodika, loyihalash.

Abstract: This article examines the improvement of pedagogical mechanisms for assessing students' competencies in vocational education institutions based on the credit-module system. Scientific and methodological approaches to competency assessment within the credit-module framework are analyzed, and recommendations are proposed for integrating these approaches into the modern vocational education system. Furthermore, contemporary pedagogical mechanisms for organizing instruction based on the credit-module system are substantiated through scientific analysis and the author's interpretations.

Key words: credit-module system, vocational education, competency, pedagogical mechanism, competency assessment, assessment criteria, diagnostics, monitoring, methodology, instructional design.

Аннотация: В статье рассмотрены вопросы совершенствования педагогических механизмов оценки компетенций обучающихся в организациях профессионального образования на основе кредитно-модульной системы. Проанализированы научно-методические подходы к оценке компетенций в условиях кредитно-модульного обучения, а также разработаны предложения и рекомендации по их интеграции в современную систему профессионального образования. Кроме того, современные педагогические механизмы организации обучения на основе кредитно-модульной системы обоснованы посредством научного анализа и авторских выводов.

Ключевые слова: кредитно-модульная система, профессиональное образование, компетенция, педагогический механизм, оценка компетенций, критерии оценивания, диагностика, мониторинг, методика, проектирование.

KIRISH

Kredit-modul tizimida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarining kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi zamonaviy ta'lim tizimini boshqarish va ta'lim sifatini ta'minlashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu mexanizm o'quvchining muayyan kasb bo'yicha nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, malakalari hamda shaxsiy sifatlarini tizimli, shaffof va natijaga yo'naltirilgan tarzda baholashni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan, kredit-modul tizimida baholash jarayoni an'anaviy nazorat shakllaridan farqli ravishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslanadi.

Kredit-modul tizimida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarining kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi maqsadli, tizimli va natijaga yo'naltirilgan boshqaruv jarayoni hisoblanadi. Unda baholash faqat reyting qo'yish vositasi emas, balki o'quvchining real kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash, uni rivojlantirish hamda mehnat bozori talablariga moslashtirish vazifalarini bajaradi. Shu bois mazkur mexanizmi

ilmiy asosda joriy etish kasbiy ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi.

Kredit-modul tizimida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarining kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi (yunoncha mēchanē - moslama, qurilma) nazariy jihatdan kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim falsafasi, natijalarga asoslangan boshqaruv hamda baholashning mezon va indikatorlariga tayanuvchi tashkiliy-metodik yechimlar majmui sifatida izohlanadi. Ushbu mexanizmning markazida o'quvchi shaxsining real mehnat vaziyatlarida namoyon bo'ladigan bilim, ko'nikma, malaka va munosabatlar integratsiyasi turadi. Baholash esa mazkur integratsiyani modul bo'yicha belgilangan o'quv natijalari hamda kasbiy standartlar bilan muvofiqlashtiruvchi asosiy vosita vazifasini bajaradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogikada mexanizm deganda, avvalo, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni amalga oshirishga xizmat qiluvchi, o'zaro bog'liq komponentlarning tizimli faoliyatini ta'minlaydigan ichki konstruktsiya tushuniladi. Shuningdek, mexanizm o'zining tuzilmaviy-tarkibiy xususiyati orqali faoliyat mazmunini tashkil etuvchi elementlarning - maqsad, vazifa, metod, vosita, subyekt, jarayon, indikator va natijaning uzviy bog'liqligini ta'minlaydi. Shu bois ilmiy adabiyotlarda mexanizm ko'pincha tizimlilik konsepsiyasi bilan integratsiyada yoritiladi ^[1].

Pedagogik mexanizm mohiyatan ta'lim jarayonining boshqariluvchanligi va rivojlanishiga xizmat qiluvchi ichki qonuniyatlar majmuasi bilan tavsiflanadi. Uning ishlashi faollashtiruvchi, boshqaruvchi, o'zgartiruvchi hamda natijani kafolatlovchi komponentlarning uyg'un faoliyatini talab etadi. Pedagogik faoliyatda mexanizmning asosiy vazifasi ta'lim jarayonini natijaga yo'naltirilganlik, refleksivlik, takomillashuv va moslashuvchanlik tamoyillari asosida tashkil etishdan iborat.

O'zbekiston olimlari N.A.Muslimov ^[2], U.Sh.Begimqulov ^[3], Z.K.Ismailova ^[4]lar nuqtai nazarida mexanizmning asosiy vazifasi - o'quv jarayonini kasbiy kompetensiyalar matriksiga mos modullashtirish, natijalarni mezonlashtirish va monitoring-teskari aloqa siklini yo'lga qo'yishdan iborat. Mazkur yondashuvda modul ichida o'quv vazifalari ketma-ketligi, amaliy topshiriqlar, ishchi portfolio va ishlab chiqarish amaliyoti natijalari orqali o'quvchining rivojlanish dinamikasi kuzatiladi. Baholash jarayonida esa reyting, rubrika, chek-list va muammoli loyihalar bir tizimga solinadi. Ilmiy ishlarda, odatda, baholashning shaffofligi, mezonlarning operatsionalligi va dalillarning triangulyatsiyasi (test, kuzatuv, loyiha, ish beruvchi fikri) mexanizmning samaradorlik sharti sifatida ko'rsatiladi. Shuningdek, raqamli o'quv muhiti (LMS), elektron portfoliolar, masofaviy baholash vositalari va o'qituvchi-mentorlarga mo'ljallangan metodik qo'llanmalar ushbu mexanizmning texnologik tayanchi sifatida talqin qilinadi. Baholash natijalari kafedra darajasida PDCA sikli orqali tahlil qilinib, modullar mazmuni va baholash indikatorlari takomillashtiriladi.

MDH olimlari A.A.Verbitskiy, A.V.Xutorskiy, V.I.Baidenkolar kompetensiyaviy va kontekstual yondashuv sintezini mexanizmning metodologik poydevori sifatida asoslaydi. Ularning tadqiqotlarida "kompetensiya" mazmuni faoliyat-vazifa kontekstida ochiladi. Mehnat jarayonidagi tipik vaziyatlar, rollar va ishlab chiqarish texnologiyalari ta'lim mazmunini tuzishda determinant bo'lib xizmat qiladi. Kredit-modul tizimidagi baholash shu kontekstlarni didaktik modelga ko'chirishni, amaliy vazifalarni standartlashtirishni va reyting-modul metodikasini uyg'unlashtirishni talab etadi. Shunga ko'ra, baholash vositalari banki asosiy o'rin tutadi. Vaziyatli topshiriqlar, simulyatsiya, keys, ishlab chiqarish topshiriqlari va kasbiy sinovlar kompetensiyaning faoliyatli komponentini ochib beradi. Refleksiv esse va intervyu esa motivatsion-aksiologik komponentni o'lchaydi. MDH maktabida konstruktiv moslik (o'qitish maqsadlari - faoliyat - baholashning birligi) va modul-reyting modeli tez-tez qayd etiladi. Baholashda adolat (validlik, ishonchlilik), reproduktivdan ijodiy faoliyatga o'tish hamda o'zaro baholash va o'zini baholash mexanizmlarini kiritish mexanizmning yetakchi belgilari sifatida qaraladi ^[5, 6, 1].

Xorijiy ilmiy adabiyotlar J.Biggs, D.A.Kolb, L.M.Spencerlar kredit (ECTS/ECVET/EQF/EQAVET) mantig'iga tayangan holda mexanizmi natija-yo'naltirilgan dizayn sifatida ko'radi. Avvalo o'quv natijalari aniq fe'llar bilan (Bloom, SOLO) operatsionallashtiriladi, so'ng ularni o'lchashga mos autentik baholash vositalari ishlab chiqiladi. Didaktik dizaynda konstruktiv moslik tamoyili qat'iy kuzatiladi. Modul maqsadlari - o'qitish strategiyalari - baholash usullari o'zaro izchil bog'lanadi. Performance-based assessment, workplace assessment, OSCE/skill-lab formatlari, e-portfolio va rubrikalardan foydalanish orqali baholash natijalari ko'rgazmali artefaktlarga (ish namunasi, loyiha prototipi, texnologik xarita) aylantiriladi. Ish beruvchi refleks va mijoz simulyatsiyasi orqali tashqi ishonchlilik kuchaytiriladi. Sifat kafolati jihatidan EFQM va EQAVET ko'rsatkichlari, ichki-tashqi audit, moderatorlik va baholovchilarni kalibrlash mexanizmlari muhim o'rin tutadi. Zamonaviy tadqiqotlar raqamli analitika (LMS log-ma'lumotlari, Learning Analytics), moslashuvchan testlar va kompetensiya darajalarini izchil ko'rsatadigan analitik panellar yordamida o'quvchining individual trayektoriyasini boshqarish mumkinligini ta'kidlaydi ^[7, 8, 9].

Uch ilmiy maktabning umumiy nuqtasi shundaki, mexanizm qat'iy ketma-ketlikka ega sikl sifatida tasvirlanadi. Maqsad va kompetensiya modeli – modul dizayni – baholash vositalari banki – o'qitish-o'rganish faoli-



yati – ko'p manbali baholash – tahlil va teskari aloqa – takomillashtirish. Farqlovchi jihatlar esa aksentlarda namoyon bo'ladi. O'zbekiston tadqiqotlarida milliy malaka talablari va amaliyot bazalari bilan integratsiya, hamda raqamli portfolioni boshqarish kuchli darajada shakllanmoqda. MDH ishlarida kontekstual-faoliyatli konsepsiya va modul-reytingning metodik apparati chuqur ishlab chiqiladi. Xorijiy adabiyotlarda esa autentik baholash, ish beruvchi ishtiroki, kalibrlash va sifat kafolati tizimlari hamda tahliliy monitoring ilg'or o'rinda turadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mexanizmning nazariy yadro elementlari quyidagicha yakuniylashadi.

Birinchidan, validlik topshiriq mazmuni kasbiy malaka tavsiflari va modul natijalari bilan semantik jihatdan to'liq mos bo'lishi shart;

Ikkinchidan, ishonchlilik va kalibrlash: baholovchilar o'rtasida kelishilgan rubrikalar, namunaviy javoblar, ko'r-baholash va moderatsiya protseduralari talab etiladi;

Uchinchidan, adolat va inklyuziya: turli start pozitsiyadagi o'quvchilar uchun differensial yondashuv, imkoniyati cheklangan ta'lim oluvchilar uchun moslashtirish choralari nazarda tutish;

To'rtinchidan, raqamli iz va qayta ishlab chiqarish: LMS, e-portfolio, video-protokollash orqali natijalarni hujjatlashtirish hamda keyingi tahlilga tayyor holda saqlash;

Beshinchidan, mehnat bozori bilan oqimlilik: ish beruvchilar bilan hamkorlikda vazifalarni yangilash, dual komponentlarni kengaytirish va kompetensiyalarni real ishlab chiqarish indikatorlari bilan bog'lash.

Shu nuqtai nazardan, kredit-modul tizimidagi baholash mexanizmi oddiy ball qo'yishdan iborat jarayon emas, balki o'quv natijalarini mehnat faoliyati kontekstida verifikatsiya qiladigan, teskari aloqa va qayta dizayn orqali o'zini yangilay oladigan o'zaro bog'liq tarkibiy qismlar tizimidir. Ilmiy tadqiqotlar ko'rsatadiki, mexanizmning yuqori samaradorligi uchta shartga tayanadi: kompetensiyalarni kontekstual operatsionallashtirish, baholashning autentik va ko'p manbali tashkil etilishi, hamda sifat kafolati siklining raqamli tahlil bilan integratsiyasi. Natijada, o'quvchi kasbiy kompetensiyalarining shakllanishi nafaqat o'lchanadi, balki ularning mazmuni muntazam ravishda boyitilib, modul dizayni orqali qayta ishlab chiqiladi. Bu esa raqobatbardosh, moslashuvchan va refleksiv mutaxassisni tayyorlashning barqaror poydevorini yaratadi.

Kredit-modul tizimida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarining kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi ta'lim jarayonini natijaga yo'naltirish, o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini real kasb faoliyati kontekstida namoyon etish hamda diagnostika qilishga qaratilgan tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshiriluvchi jarayonlar majmuini anglatadi. Ushbu mexanizmning asosida kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari, modul asosida o'qitish konsepsiyasi, baholash indikatorlari va mezonlari, shuningdek, jarayonni boshqarish, monitoring qilish hamda teskari aloqa mexanizmlarining uyg'un holda ishlashi yotadi. Mexanizmning asosiy vazifasi kasbiy kompetensiyalarni aniqlashtirish, ularning tuzilmasini belgilash, modul natijalariga mos ravishda baholash vositalarini ishlab chiqish hamda baholash jarayonini o'quvchining shaxsiy rivojlanish trayektoriyasi bilan integratsiyalashtirishdan iboratdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik mexanizmning markazida o'quv natijalari tizimi mavjud bo'lib, u kasbiy kompetensiyalarni operatsionallashtirish, ularning tarkibiy qismlarini (bilim, ko'nikma, faoliyat usuli va munosabat) aniqlash hamda modul bloklari orqali bosqichma-bosqich shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur jarayon konstruktiv moslik tamoyiliga asoslanadi. Bunda o'qitish maqsadi, ta'lim faoliyati va baholash vositalari o'zaro uzviy bog'langan holda tashkil etiladi. Shu sababli modul doirasidagi topshiriqlar kasbiy vaziyatlarga maksimal darajada yaqinlashtirilgan bo'lishi, baholash esa o'quvchining real kasbiy faoliyatdagi natijalarini aks ettirishi lozim.

Pedagogik mexanizmning muhim jihatlaridan biri baholash mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqishdan iborat. Har bir modul bo'yicha kompetensiyalarning darajalari hamda ularni namoyon etuvchi ko'rsatkichlar aniq belgilab olinadi. Mazkur indikatorlar amaliy faoliyatda bajariladigan aniq vazifalar asosida shakllantiriladi. Natijada baholash jarayonida subyektivlik darajasi kamayadi, shaffoflik va obyektivlik ta'minlanadi. Kasbiy kompetensiyalarni baholashda testlar, amaliy topshiriqlar, loyiha ishlari, keyslar, elektron portfolio, kuzatuv natijalari, ish beruvchilar fikri hamda modulli imtihonlar kabi ko'p manbali baholash vositalaridan foydalanish pedagogik mexanizmning ko'p bosqichli yondashuvini shakllantiradi. Bu esa o'quvchining nafaqat bilim darajasini, balki real vaziyatlarda samarali faoliyat ko'rsatish qobiliyatini ham aniqlashga xizmat qiladi.

Mazkur mexanizmning samarali ishlashi uchun teskari aloqa (feedback) hal qiluvchi ahamiyatga ega. Har bir baholash natijasi o'quvchining keyingi rivojlanish istiqbollari belgilash, mavjud kamchiliklarini tahlil qilish hamda zarur metodik yordam ko'rsatishni nazarda tutadi. Teskari aloqa o'quvchining refleksiv fikrlashini faol-

lashtiradi, o'zini o'zi baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda kasbiy o'sishning individual yo'nalishlarini aniq belgilash imkonini yaratadi. Shuningdek, teskari aloqa mexanizmi o'qituvchi, o'quvchi va ish beruvchi o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi hamda baholash jarayonini ochiq, shaffof va rivojlantiruvchi modelga aylantiradi.

Pedagogik mexanizm o'z tarkibida monitoring tizimini ham mujassam etadi. Monitoring jarayonida o'quvchilar kompetensiyalarining shakllanish dinamikasi tahlil qilinadi, o'quv faoliyati natijalari muntazam to'planadi va qayta ishlanadi. Raqamli platformalar (LMS), elektron portfoliolar va reyting jurnallari monitoring hamda tahlil jarayonlarini yengillashtiradi, shuningdek, zarur ma'lumotlarni o'z vaqtida olish imkonini yaratadi. Monitoring natijalariga asoslanib, o'quv jarayonidagi yutuqlar va mavjud muammolar aniqlanadi, modullar mazmuni hamda ularni amalga oshirish metodikasi muntazam takomillashtirib boriladi.

Mexanizmni tashkil etishda o'qituvchining metodik va baholash kompetensiyalari muhim o'rin tutadi. O'qituvchi kasbiy topshiriqlarni modellashtira olishi, autentik baholash vositalarini ishlab chiqa olishi, rubrikalar tuza olishi, sifatli teskari aloqa bera olishi hamda o'quvchi faoliyatini kuzatib, diagnostika qila olishi lozim. Shuningdek, pedagogik mexanizm ishlab chiqarish muhitini baholash jarayoniga jalb etishni ham taqozo etadi. Ish beruvchilarning fikrlari, amaliyot jarayonida o'quvchi tomonidan bajarilgan vazifalar, mahsulot yoki loyiha natijalari kompetensiyalarni baholashning asosiy manbalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Pedagogik mexanizmni ishlab chiqish jarayoni, odatda, quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

- 1. Diagnostik bosqich.** Mazkur bosqichda ta'lim jarayonining holati, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, ehtiyojlari, mavjud muammolari hamda rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Kompetensiyaviy bo'shliqlar aniqlanadi, ta'lim natijalariga qo'yiladigan talablar o'rganiladi. Normativ-huquqiy hujjatlar, mehnat bozori talablari va kasbiy standartlar tahlil qilinib, pedagogik muammo aniqlanadi hamda ilmiy jihatdan asoslanadi.
- 2. Maqsadni belgilash.** Ushbu bosqichda pedagogik mexanizmning maqsadi, vazifalari, konseptual yondashuvlari, tamoyillari va tarkibiy komponentlari aniqlanadi. Modellashtirish uchun zarur bo'lgan kategoriya va tushunchalar belgilab olinib, mexanizmning nazariy asoslari ishlab chiqiladi. Shuningdek, mexanizmning qaysi pedagogik yondashuv (kompetensiyaviy, tizimli, kontekstual, shaxsga yo'naltirilgan va boshqalar) asosida ishlab chiqilishi belgilab olinadi.
- 3. Loyihalash.** Ushbu bosqichda mexanizmning funksional elementlari, ya'ni subyektlar, resurslar, jarayonlar, vositalar, shart-sharoitlar, boshqaruv, monitoring va natijalar aniqlanadi. Mazkur elementlar o'zaro bog'liq holda tizimli ravishda modellashtiriladi. Mexanizmni amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-pedagogik, psixologik, metodik hamda moddiy-texnik shart-sharoitlar belgilab olinadi.
- 4. Pedagogik jarayonni modullashtirish.** Bu bosqichda o'quv jarayoni mazmuni modullarga ajratiladi, kompetensiya komponentlariga mos o'quv faoliyatlari, metodlar va didaktik vositalar tanlanadi. Baholash mezonlari, indikatorlari hamda ko'p manbali baholash vositalari ishlab chiqiladi. O'quv jarayonining ketma-ketligi, ya'ni boshlang'ich tayyorgarlik, o'quv faoliyati, nazorat va refleksiya bosqichlari aniqlashtiriladi.
- 5. Amaliyotga joriy etish.** Mazkur bosqichda mexanizm real ta'lim jarayoniga tatbiq etiladi. Tanlangan metodlar, baholash vositalari va resurslar asosida o'quv jarayoni tashkil etiladi. O'quvchi faoliyati boshqariladi, amaliy topshiriqlar bajariladi hamda teskari aloqa yo'lga qo'yiladi. Jarayonning samarali amalga oshirilishi uchun hamkorlik, nazorat va maslahatlashuv tizimi yo'lga qo'yiladi.
- 6. Monitoring va diagnostika.** Ushbu bosqichda pedagogik mexanizmning natijalari muntazam kuzatib boriladi. O'quvchilarning kompetensiyalari shakllanish darajasi, baholashning samaradorligi hamda yaratilgan shart-sharoitlarning yetarliligi diagnostika qilinadi. Belgilangan mezonlarga muvofiqlik darajasi, mavjud yutuqlar va kamchiliklar aniqlanadi. Zarur hollarda jarayonni boshqarish yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilinadi.
- 7. Tahlil va teskari aloqa.** Mazkur bosqichda monitoring natijalari chuqur tahlil qilinadi, mexanizmning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi. O'qituvchi, o'quvchi va boshqa manfaatdor tomonlarning fikrlari inobatga olinadi. Bajarilmagan vazifalar aniqlanib, mexanizm qayta loyihalanadi yoki takomillashtiriladi. Ushbu bosqich uzluksiz takomillashtirish (continual improvement) tamoyiliga asoslanadi.

Pedagogik mexanizmni ishlab chiqish bosqichlari tashxislashdan boshlab takomillashtirishgacha bo'lgan mantiqiy siklni tashkil etadi. Mazkur sikl ta'lim mazmunining mehnat bozori talablariga moslashtirilishini, o'quvchilar kompetensiyalarining bosqichma-bosqich rivojlanishini, baholash jarayonining adolatli va shaffof tashkil etilishini hamda ta'lim sifatining uzluksiz oshib borishini ta'minlaydi.

Kredit-modul tizimida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarining kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi yuqorida keltirilgan bosqichlar mantiqiy ketma-ketlikda amalga oshirilgandagina sama-



rali natija beradi. Ushbu mexanizm diagnostika, loyihalash, joriy etish, monitoring va takomillashtirish kabi izchil bosqichlar orqali kasbiy kompetensiyalarni aniq baholash hamda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Diagnostic bosqichda o'quv jarayonining mavjud holati, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi bo'shliqlar, mavjud muammolar va rivojlanish ehtiyojlari aniqlanadi. Bu jarayonda mehnat bozori talablari, kasbiy standartlar, o'quv rejaları va dasturlarining modullashtirilganlik darajasi hamda baholash vositalarining sifati tahliliy yondashuv asosida o'rganiladi. Diagnostika natijalariga tayangan holda pedagogik mexanizmning ilmiy asoslanganligi ta'minlanadi.

Ikkinchi bosqichda pedagogik mexanizmning maqsadlari, vazifalari hamda nazariy-metodologik asoslari belgilanadi. Ushbu jarayon kompetensiyaviy, tizimli, kontekstual va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Bunda kasbiy kompetensiyalarning tuzilmasi, ularning tarkibiy komponentlari (bilim, ko'nikma, faoliyat usullari, kasbiy va ijtimoiy munosabatlar) aniqlashtiriladi hamda baholash tamoyillari, konseptual modeli va kategoriyaviy apparati ishlab chiqiladi. Shu bosqichda mexanizm faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilovchi metodologik asos izchil shakllantiriladi.

Loyihalash bosqichida baholash jarayonining subyektlari (o'qituvchi, o'quvchi va ishlab chiqarish hamkorlari), resurslari, didaktik vositalari, jarayonlari hamda monitoring tizimi belgilab olinadi. Ushbu bosqichda pedagogik mexanizmning tarkibiy qismlari, ya'ni tashkiliy-pedagogik, pedagogik-psixologik va moddiy-texnik shart-sharoitlar hamda o'quv-metodik ta'minoti shakllantiriladi. Shuningdek, pedagogik mexanizmning ishlash mantiqiy tuzilmasi modellashtiriladi.

Modullashtirish bosqichida modullar kasbiy kompetensiyalar mazmuni asosida ishlab chiqilib, har bir modulga mos o'quv faoliyatlari, interfaol metodlar va amaliy topshiriqlar tizimi shakllantiriladi. Baholash indikаторlari, mezonlari, rubrikalari, testlar, keyslar, amaliy topshiriqlar va elektron portfoliolar kabi ko'p manbali baholash vositalari ishlab chiqiladi. Mazkur bosqich o'qitish maqsadlari, o'quv faoliyati va baholash vositalari o'rtasidagi konstruktiv moslikni ta'minlaydi.

Mexanizmni amaliyotga joriy etish bosqichida o'quv jarayonining real modulli tashkil etilishi, baholash vositalarining amaliyotga tatbiq etilishi, o'quvchilarning individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish, masofaviy va an'anaviy baholash shakllarini uyg'unlashtirish hamda ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan baholashni amalga oshirish kabi faoliyatlar bajariladi. Mazkur jarayon davomida o'qituvchi-mentorlar tomonidan kasbiy-metodik yordam ko'rsatiladi va muntazam teskari aloqa ta'minlanadi.

Monitoring va diagnostika bosqichida o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalari shakllanishining dinamikasi, baholash vositalarining samaradorligi hamda didaktik jarayonning mazmuni va sifati tahlil qilinadi. Diagnostika raqamli platformalar, elektron portfoliolar, reyting jurnallari, test natijalari va amaliy faoliyat ko'rsatkichlari asosida amalga oshiriladi. Ushbu bosqich baholash jarayonining shaffofligi, obyektivligi va adolatligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Umuman, kredit-modul tizimida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi diagnostika, loyihalash, joriy etish, monitoring hamda takomillashtirish bosqichlarining o'zaro uzviy bog'langan, integrativ va siklik xususiyatga ega bo'lgan jarayonidir. Mazkur mexanizm o'quv natijalarining obyektiv baholanishini, kasbiy kompetensiyalarning bosqichma-bosqich shakllanishini, baholash vositalarining ko'p manbaliligini hamda teskari aloqaning uzluksizligini ta'minlaydi. Natijada mehnat bozori talablariga mos, raqobatbardosh va kasbiy faoliyatga tayyor mutaxassislarni tayyorlash uchun mustahkam pedagogik asos yaratiladi.

Amaliyotga joriy etish bosqichi kasbiy kompetensiyalarni real faoliyatda namoyon etish va baholashga yo'naltirilgan bo'lib, faoliyatga asoslangan baholash, ishlab chiqarish topshiriqlari hamda elektron portfoliodan foydalanish bilan uyg'unlashtiriladi. Mazkur bosqichda o'quvchi kompetensiyalarining real mehnat jarayoni talablariga muvofiq namoyon bo'lish darajasi baholanadi. Monitoring va diagnostika bosqichi esa baholash vositalarining samaradorligini aniqlash, refleksiv baholash jarayonini yo'lga qo'yish hamda monitoring jadvallari orqali o'quv faoliyati natijalarini muntazam kuzatib borishni o'z ichiga oladi.

Yakuniy bosqich tahlil va teskari aloqa bilan tavsiflanadi. Ushbu bosqichda olingan natijalar tahlil qilinadi, yakuniy baholash amalga oshiriladi, hisobotlar tayyorlanadi hamda aniqlangan kamchiliklar yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Mazkur bosqich mexanizmning siklik xususiyatga ega ekanligini, ya'ni olingan natijalar asosida qayta diagnostika o'tkazilishi va jarayonning uzluksiz takomillashtirib borilishini ifodalaydi. Rasmda aks ettirilgan mazmun, baholash shakllari va vositalarining o'zaro uyg'unligi kredit-modul tizimining samarali faoliyat yuritishini, shuningdek, o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini aniq, adolatli va kompleks baholash imkonini berishini ko'rsatadi. Natijada mexanizm o'quv faoliyatining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi integral tizim sifatida namoyon bo'lib, kasbiy ta'lim jarayonida shaxsiy, kognitiv, faoliyatga oid va refleksiv kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kredit-modul tizimida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarining kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi o'quv natijalarini aniq belgilash, baholash mezonlarini ishlab chiqish, baholashning turli vositalarini o'zaro uyg'unlashtirish, monitoring va teskari aloqa jarayonlarini o'quvchining individual rivojlanish trayektoriyasi bilan integratsiyalashga asoslanadi. Ushbu mexanizmning samarali faoliyat yuritishi ta'lim jarayonining sifatini oshiradi, o'quvchilarning amaliy kasbiy kompetensiyalarini obyektiv aniqlashga yordam beradi, o'qitish jarayonini mehnat bozori talablari bilan uyg'unlashtiradi hamda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Pedagogik mexanizmni ishlab chiqish bosqichlari ta'lim jarayonida maqsadga yo'naltirilgan, tizimli va ilmiy asoslangan faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo'lgan izchil ketma-ketlikni ifodalaydi. Mazkur bosqichlar ta'lim jarayonini loyihalash, amalga oshirish, monitoring qilish va takomillashtirishni o'z ichiga oladi hamda pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Байденко В. И. Компетенции в профессиональном образовании (к освоению компетентностного подхода). - М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. - 249 с.
2. Muslimov N. A. Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari: monografiya. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. - 264 b.
3. Begimqulov U. B. Raqamli ta'lim muhitida pedagogik shart-sharoitlarni loyihalash: monografiya. - Toshkent: Innovation rivojlanish nashriyoti, 2020. - 240 b.
4. Ismoilova Z. K. Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv va pedagogik shart-sharoitlar. - Toshkent: O'qituvchi, 2016. - 198 b.
5. Вербицкий А. А. Контекстное обучение: теория и практика. - М.: Высшая школа, 1991. - 207 с.
6. Хуторской А. В. Компетентностный подход в образовании: методология и практика. - М.: Эйдос, 2003. - 256 с.
7. Biggs J. B., Collis K. F. Evaluating the Quality of Learning: The SOLO Taxonomy. - New York: Academic Press, 1982. - 245 p.
8. Kane M. T. Validation of Educational Assessment. - New York: Routledge, 2013. - 292 p.
9. Spencer L. M., Spencer S. M. Competence at Work: Models for Superior Performance. - New York: John Wiley & Sons, 1993. - 372 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.